

“HAYOT FAOLIYATI XAVFSIZLIGI” FANINI O'QITISHDA GRAFIK ORGANAYZERLARNI QO'LLASH TARTIBI

Munajatxon Yusupjanovna Akbarova

FJSTI, Biofizika va axborot texnologiyalari kafedrası o'qituvchisi
akbarovamunajatxon1966@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolamizda Tibbiy ta'lim yo'nalishida taxsil olayotgan talabalar uchun “Hayot faoliyati xavfsizligi” fanini o'qitishda grafik organayzerlarni qo'llashning o'rni va ahamiyati haqida ma'lumotlar beriladi.*

Kalit so'zlar: *empirik, kognitiv, evristik, inversion, kreativ, adaptive, inkluziv.*

Аннотация: *В данной статье представлена информация о роли и значении использования графических органайзеров в преподавании науки «Безопасность жизнедеятельности» студентов, обучающихся по направлению медицинского образования.*

Ключевые слова: *эмпирический, когнитивный, эвристический, инверсионный, творческий, адаптивный, инклюзивный.*

Annotation: *In this article, information is given about the role and importance of using graphic organizers in teaching the science of "Safety of life activities" for students studying in the field of medical education.*

Key words: *empirical, cognitive, heuristic, inversion, creative, adaptive, inclusive.*

Respublikamiz mustaqilligi, iqtisodiyotiga mos ijtimoiy - iqtisodiy siyosatni shakllantirish – zamon talablariga javob beradigan, yuqori malakali kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish jarayonlari samaradorligini ta'minlovchi kasbiy ta'lim mazmunini takomillashtirishni taqozo etmoqda. Shu sababli tibbiy ta'lim muassasalarida ham zamonviy ta'lim usullari, yo'nalishlarini joriy etish hozirgi kunimizning dolzarb vazifalari qatoridadir.

“Hayot faoliyati xavfsizligi” fanini o'qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni, interfaol metodlarni qo'llash, talablarning mavzularni faol o'zlashtirishlarida samarali ta'sir ko'rsatadi. Hozirda zamonaviy pedagogik texnologiyalarning turli yo'nalishlari mavjud bo'lib, ulardan asosiylari empirik, kognitiv, evristik, kreativ, inversion, integrativ, adaptiv, inkluziv pedagogik texnologiyalardir. Bu yo'nalishlarning asosiy xususiyatlari quyidagicha:

Empirik – sezgi a'zolari orqali bilim olish. Bu texnologiyada asosiy e'tibor sezgi a'zolarining tabiiy rivojlanganlik imkoniyatlariga tayangan holda bilim berish va ularni yanada takomillashtirib borishga qaratiladi.

Kognitiv – atrofdagi olam to'g'risidagi bilimlar doirasini kengaytirish texnologiyasi. U tabaqalashtirilgan (tarkibiy qismlarga ajratib o'rganish) tafakkurni shakllantiradi, bilish ehtiyojlarini rivojlantiradi.

Evristik – yo‘naltiruvchi savollar berish yo‘li bilan ta‘lim berish lozim. Topqirlik, faollikni rivojlantirishga xizmat qiluvchi, o‘quv-izlanish ta‘lim metodi bo‘lib, optimallashtirish (bir necha variantlardan eng ma‘qulini, mosini, muvofiq‘ini tanlash) tafakkurni rivojlantiradi.

Kreativ – tadqiqot xarakteriga ega bo‘lib, talabalarda maqsadga yo‘naltirilgan ijodiy tafakkurni jadal rivojlantiradi.

Inversion – axborotlarni turli tomondan o‘rganish, o‘rnini almashtirish xususiyatiga ega bo‘lib, tafakkur (fikrlash) tizimini shakllantiradi.

Integrativ – axborotlarni tashkil qiluvchi cheksiz ko‘p kichik qismlarning o‘zaro ajralmas bog‘liqligi, ularning yaxlitligi, bir butunligi asosida yagona to‘g‘ri xulosani aniqlash.

Adaptiv – axborotlarni va ulardan foydalanish jarayonini o‘rganish hamda o‘rgatish uchun qulaylashtirish va moslashtirish asosida kutilgan natijaga erishish.

Inkluziv – o‘qituvchi bilan talabaning o‘zaro munosabatlarida tenglik asosida ta‘lim-tarbiya jarayonini tashkil qilish.

Ta‘limning zamonaviy inovatsion texnologiyasi an‘anaviy ta‘lim texnologiyalaridan quyidagilarga ko‘ra farq qiladi: «Mashg‘ulotning asosiy maqsadi – tafakkur jarayonini tashkil etishdir, bilim ko‘nikma, malakalar – o‘quvchi faoliyatining mahsuli sifatida vujudga keladi. Tafakkur jarayonining quvvati bilimlar quvvatidan yuqori turib, u shaxsning o‘z-o‘zini rivojlantirish unsuri tarzida namoyon bo‘ladi, ijodiy izlanishning natijasi kabi, mazkur jarayonning o‘zi ham o‘ta muhim bo‘lib, aynan u o‘qituvchi va o‘quvchining ijodkorlik quvonchiga, yangilik olishga ilhomlantiradi, mustaqil izlanish va ijodiy faoliyatni tashkil etishga undaydi. «O‘qituvchi faoliyat algoritmini yaratadi. Bu esa, o‘z navbatida, ijodiy tafakkur jarayonini, amaliy, shaxsiy fikrlashni, olamni inson tomonidan har tomonlama, qoniqarli idrok etilishini ta‘minlaydi. «O‘quvchining sub‘ektivligi amalga oshadi: bilish usulini mustaqil belgilash, muammo yechimini topishda o‘z dunyoqarashi, tafakkur tarzidan kelib chiqish, xato qilish huquqiga egalik ta‘minlanadi. Bunday mashg‘ulotlarning asosiy qoidasi: «o‘zing bilgancha bajar, o‘z layoqating, qiziqishlaring va shaxsiy tajribangga asoslan, o‘z xatoingni o‘zing tuzat» kabi ko‘rsatmalarda o‘z ifodasini topadi.

An‘anaviy ta‘lim texnologiyasiga asoslangan mashg‘ulotlar esa aksincha «xuddi men kabi yoki mendan yaxshiroq bajar» qoidasiga muvofiq tashkillashtiriladi. «Muammoli va shaxsiy vaziyatlar, istenosiz tahlil hamda qarshiliklarni yengishga asoslanganligi tufayli o‘quvchining borlig‘ini namoyon qiladi, u nimalarnidir bilgani holda bilimlari to‘liq emasligi, o‘z shaxsiy tajribasiga asoslanishi lozimligini anglaydi. Mustaqil fikrni bildirishga bo‘lgan ehtiyojni, ta‘limga nisbatan rag‘batni his qiladi. O‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasida balki shunchaki an‘anaviy o‘zaro aloqadorlik emas, balki hamkorlik munosabati o‘rnatiladi. O‘qituvchi o‘quvchilar bilan birga bilish faoliyatida ishtirok etadi, topshiriqlarni bajaradi. Odatdagi, ko‘nikib qolingan tushuntirishlar o‘rnini o‘zaro hamkorlik egallaydi. «Zarur ma‘lumotlarni o‘qituvchi oz-

ozdan berib boradi. Bunda o'quvchilarning mustaqil fikrlashlari uchun imkoniyat qoldirishga e'tibor qilinadi. «Ijodiy izlanuvchanlik faoliyati kichik guruhlarda amalga oshiriladi. Izlanish natijalari sinf o'quvchilarining barchasiga ma'lum qilinadi, barcha yangi bilimlarni egallashi uchun sharoit yaratiladi. Jamoada shaxsning o'z o'rnini borligini anglash, tengdoshlarining o'ziga xos xususiyatlarini hurmat qilish tuyg'ulari shakllanadi. «An'anaviy ta'limda tashqaridan kuzatilgan shaxsiy faoliyatini quyi darajada baholash hodisasi ro'y bermaydi, shu bois ijobiy g'oyalarga tayangan holda ishlash muhiti qaror topadi. Bu esa o'quvchida ta'lim olishga rag'bat uyg'otibgina qolmay, unda bilim olish, bu yo'lda tinimsiz izlanish, mehnat qilish zarurligini anglay olish layoqatini shakllantiradi. Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyasini qo'llashga qadar hamda undan keyin o'quvchilarning kasbiy faoliyati va o'z o'rnilarini anglashga oid tasavvurlari o'rganilgan vaqtda ularning quyidagi tasavvurlarga egaliklari aniqlandi: nazorat darajasi, anglangan nazorat, kasbiy faollikni erishilgan yutuqlarning omili sifatida qabul qilish, o'z-o'ziga ishonch, tushuntirish uslubi, ta'lim olish usullari va boshqalar.

Demak, ta'lim har bir o'quvchining qiziqishi va bilish qobiliyatining o'quv faoliyatini tashkil etish jarayonida namoyon qilish imkoniyatini yarata olishi zarur. Bu holat o'quvchining bilish ob'ekti va predmeti bo'lgan shaxsiy xususiyatlarini aniqlash asosida, uning shaxs sifatida rivojlanishini va o'z-o'zini rivojlantirishini ta'minlaydi.

Shunday qilib, pedagog-o'qituvchilarning zamonaviy pedagogik texnologiyalarning mohiyatidan xabardorliklari hamda ularni ta'lim jarayonida samarali qo'llay olishlari, shuningdek, didaktik va metodik masalalarning o'z yechimlarini topishi kadrlar tayyorlash milliy modelini ro'yobga chiqarishning muhim bosqichidir. Zero, pedagog-o'qituvchi qo'lida bilimga chanqoq talabalar, fan mazmuniga mos dastur, qo'llanma, darsliklar mavjud bo'lsa, u didaktik va metodik jarayonni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun bilim faoliyatini tashkiliy shakllaridan samarali foydalanib, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni izchil va ketma-ket amaliyotga joriy etishi mumkin. Shu boisdan pedagog-o'qituvchi mahoratiga ko'p narsa bog'liq:

1. Pedagog-o'qituvchi davlat ijtimoiy buyurtmasiga mos keladigan ta'lim-tarbiya maqsadini aniq belgilashi kerakki, natijada ma'lum vaqt ichida unga erishishni ta'minlaydigan didaktik jarayonni tuzish va joriy etish to'g'risida xulosa qila bilsin.

2. Pedagog-o'qituvchi pedagogik tizimda belgilangan maqsadga to'g'ri keladigan o'quv-tarbiyaviy jarayon mazmunini o'quv dasturi bo'yicha chuqur egallashi, muntazam ravishda o'z pedagogik mahoratini ilmiy-texnikaviy taraqqiyot va pedagogik texnologiyalar talablariga mos holda, mustaqil ravishda kengaytirib borishi zarur.

3. Pedagog-o'qituvchi pedagogik tizimning tarkibiy elementi sifatida didaktik jarayonni amalga oshirish bilan tanish bo'lishi kerak: bu – jadallashtirish va tabiatan monandlik talabidir. Jadallashtirish didaktik masalalarni ma'lum vaqt doirasida birmuncha tez va yuqori saviyada hal eta oladigan didaktik jarayon qo'llanilishini talab etadi. Ta'lim va tarbiyaga bu talabni aniqlab beruvchi omil – talabalarning muayyan

faoliyatni o'zlashtirish tezligi hisoblanadi. Ikkinchisi o'quv-tarbiyaviy jarayonni shunday tashkil etishga asoslanganki, bunda mumkin qadar talabalarning keng doirada tajriba egallashiga imkon tug'diradigan va ular-ning aqliy malakasini rivojlantira oladigan mexanizm vujudga kelsin. Bu talabalarning o'qishga bo'lgan xohishi, istagi, o'quv mehnatiga munosabatida namoyon bo'ladi.

4. Pedagog-o'qituvchi didaktik jarayonni amalga oshirishda o'qitishning samarali shakllaridan foydalana olishi kerak. O'qitishning tashkiliy shakllari to'g'ri tanlanishi pedagogik tizim elementlarining ma'lum qonuniyati asosida bir-biri bilan bog'liq ekanligini bildiradi. Bu bog'lanishlardan foydalanish va eng maqbul bo'lgan tashkiliy shakllarni topish ta'limda rasmiyatchilikni yo'qotishga yo'l ochadi.

5. Pedagog-o'qituvchi pedagogik tizimning ishtirokchisi bo'lgan talabaning ta'lim mazmuni va tarbiya ta'sirini qay darajada egallayotganligini eng maqbul usullar yordamida doimo nazorat qilib borishi lozim. Bu to'g'rida olingan axborotlar esa, pedagogik tizimni maqsadga muvofiq tarzda boshqarish imkoniyatini beradi yoki tizimdagi qaysi elementning mazmuniga tuzatish kiritish kerakligini aniqlaydi.

Shunday qilib, pedagogikaga xos bo'lgan zamonaviy pedagogik texnologiyalar jarayonini amaliyotga tatbiq qilishda pedagog-o'qituvchi mahoratining ba'zi qirralari to'g'risida to'xtaldik. Pedagogik texnologiyalarning ilmiy xarakterdaligiga e'tibor qaratgan holda, uning amaliy yo'nalishga xosligini, uni aniq masalalarni hal qilishda qo'llash mumkinligini e'tirof etish kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Одинахон Рахмановна, П., & Бахтиёр Хабибуллаевич, Р. (2023). ИННОВАЦИОН ТАЪЛИМ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИНИНГ ТУРЛАРИ ВА НАЗАРИЙ АСОСЛАРИ. Scientific Impulse, 1(5), 1204-1207.

2. Roziqova Gulbahor Zaylobiddinovna, Nazirova Arofatxon Maxmudjon qizi //CREATING AN INNOVATIVE EDUCATIONAL ENVIRONMENT IN THE EDUCATIONAL PROCESS// IJODKOR O'QITUVCHI JURNALI. 5 IYUN / 2022 YIL / 19 – SON. 284-288 стр.

3. Tairov, S. M. (2022). HAYOT FAOLIYATI XAVFSIZLIGI SOHASIDA BO'LAJAK O'QITUVCHILARNI KASBIY TAYYORLASHNING NAZARIY JIHATLARI. IJODKOR O'QITUVCHI, 2(19), 291-294.

4. Odinaxon Raxmanovna Parpiyeva, Melikuzieva Zulhumor Sherqozi qizi, Abdullaeva Umidahon Uktamjon qizi //INNOVATIVE EDUCATIONAL TECHNOLOGIES, THEIR NATURE, TYPES AND THEORETICAL FUNDAMENTALS// Texas Journal of Multidisciplinary Studies. Vol. 9. 06-2022. 123-126 pages.

5. Odinaxon Raxmanovna Parpiyeva, Odinaxon Odilovna Djalalidinova //Tibbiy ta'limda interfaol usullardan foydalanish// Международный научный журнал «Новости

образования: исследование в XXI веке» № 3 (100), часть 1. сентябрь, 2022 г 565-569 стр.

6. Eleonora Topvoldievna Mirzajonova, Odinaxon Rahmanovna Parpiyeva //Modern Special Preschool Education: Problems and Solutions// Journal of Pedagogical Inventions and Practices. Vol. 9. 06-2022. 100-106 pages.

7. Parpieva O.R, Hojekarimova G.T, Nazirova A.M //FORMATION OF STUDENT PEDAGOGICAL SKILLS BASED ON THE REQUIREMENTS OF INNOVATIVE EDUCATIONAL ENVIRONMENT// Международном научно-практическом журнале “Экономика и социум”. Вып №6(85) 2021. 157-161стр.

8. Odinaxon Rahmanovna Parpiyeva, Oripova Nodirahon Qodirjon qizi, Nazirova Arofatxon Maxmudjon qizi //Basics of a healthy lifestyle in the educational process// Journal of Pedagogical Inventions and Practices. Vol. 9. 06-2022. 89-94 pages.

9. Odinaxon Rahmanovna Parpiyeva, A.Ruzimatova //CREDIT-MODULE SYSTEM OF EDUCATION// O‘ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI. 20.08.2022 yil. 10-SON. 83-87 betlap

10. Odinaxon Rahmanovna Parpiyeva, Ro‘zimatova Arofatxon Maxmudjon qizi //TA'LIM OLUVCHILARNI FANLARNI O'ZLASHTIRISHGA QIZIQTIRISH USULLARI// IJODKOR O'QITUVCHI JURNALI. 5 OKTYABR / 2022 YIL / 22 – SON. 226-230 betlar

11. Tairov Sherzod Mirzadjanivich //Moslashuv (adaptatsiya) davridagi organizm funksiyalarining dinamikasi va uning bosqichlari// Международный научный журнал «Новости образования: исследование в XXI веке» № 3 (100), часть 1. сентябрь, 2022 г. 475-478 стр.

12. N. Fattakhov, G. Tillyaxodjayeva, M. Akbarova, I. Sakkizboyev // Diet on hirudotherapy to increase therapeutic effectiveness in hypertanic diseases// BIO Web of Conferences, 2023. DOI:10.1051/bioconf/20236505031.

13. Yusubjanovna, A. M. (2023). BIRINCHI TIBBIY YORDAMNING AHAMIYATI VA UNI BAJARISHNING UMUMIY QOIDAIARI. PRINCIPAL ISSUES OF SCIENTIFIC RESEARCH AND MODERN EDUCATION, 2(1).

14. Yusubjanovna, A. M., Iqbol o'g'li, Q. M., & Adhamjon o'g'li, E. A. (2023). SUYUQ KRISTALLAR VA ULARNING RENTGEN DIAGNOSTIKASI. PRINCIPAL ISSUES OF SCIENTIFIC RESEARCH AND MODERN EDUCATION, 2(6).

15. Yusubjanovna, A. M. (2023). AVTOMATIK BOSHQARISH TIZIMLARI VA TEXNIK VOSITALARINING PUXTALIGI. PRINCIPAL ISSUES OF SCIENTIFIC RESEARCH AND MODERN EDUCATION, 2(1).

16. Munojatxon, A. (2022). TIBBIYOTDA NANOELEKTROTEXNIKANING QO'LALLANILISHI. Conferencea, 5-6.

17. Abdusubxon o'g'li, U. S., & Yusubjanovna, A. M. (2022, April). YARIMO 'TKAZGICH MONOKRISTALINI O 'STIRISH. In E Conference Zone (pp. 33-34).
18. Samitjon o'g'li, N. R. (2023). ABU ALI IBN SINO ASARLARIDA SHAXS RUHIY SALOMATLIGI MASALASINING YORTILISHI. SO 'NGI ILMIY TADQIQOTLAR NAZARIYASI, 6(6), 273-277.
19. Samitjon o'g'li, N. R. (2023). BO'LAJAK O'QITUVCHILAR RUHIY SALOMATLIGI IJTIMOYIY-PSIXOLOGIK OMILLARINING O'RGANILISHI.
20. Nuriddinov, R. (2020). SENSOREDUCATION IN CHILDREN OF PRESCHOOL AGE. Теория и практика современной науки, (8 (62)), 21-24.
21. Nuriddinov, R., Mo'minov, D., & Ostanaqulov, A. (2023). BO 'LAJAK PEDAGOGLAR RUHIY SALOMATLIGINI TAMINLASHNING IJTIMOYIY-PSIXOLOGIK OMILLARI. Scientific Impulse, 1(10), 612-617.
22. НУРИДДИНОВ, Р. (2020). INFORMATION AS A SOCIAL-PSYCHOLOGICAL PROBLEM. ПСИХОЛОГИЧЕСКОЕ ЗДОРОВЬЕ НАСЕЛЕНИЯ КАК ВАЖНЫЙ ФАКТОР ОБЕСПЕЧЕНИЯ ПРОЦВЕТАНИЯ ОБЩЕСТВА. Екатеринбург-Фергана, 20, 380-382.
23. Ostanaqulov, A., Mo'minov, D., & Nuriddinov, R. (2023). MODDIY YOKI O'ZGA MANFAATDORLIK TUFAYLI OILA QURISHNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI. O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI, 2(20), 821-825.
24. Усмонов, Ш. А., & Закирова, М. С. (2021). Нуриддинов РСЎ ИЛК ЎСПИРИНЛИК ДАВРИДА АҚЛИЙ ҚОБИЛИЯТЛАРНИНГ ЭМПИРИК ТАҲЛИЛИ. Современное образование (Узбекистан).—2021, 9(106), 12-16.